

**TIJORAT BANKLARIDA TOVAR MODDIY –ZAXIRALAR  
HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTISH**

***To'xtayev Furqat Boxodirovich***

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish tizimining amaldagi holati, undagi mavjud muammolar va hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati tahlil etilad. Buxgalteriya hisobining prinsiplari, zahiralarni baholash usullari (FIFO, LIFO, o'rtacha og'irlangan baho va boshqalar), ularning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilish tartibi chuqur o'rganilgan. Shuningdek, mavjud normativhuquqiy baza, milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari (xususan, MSFO 2 - Zahiralarning hisobga olinishi) doirasida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Amaliy tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, zahiralarni noto'g'ri yoki sust hisobga olish nafaqat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligin pasaytiradi, balki boshqaruv qarorlarining asoslanmaganligiga ham olib keladi.

**Kalit so'zlar:** tovar-moddiy zahiralari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, MSFO 2, baholash usullari, FIFO, LIFO, o'rtacha og'irlangan baho, zahira harakati, hisob siyosati, aktivlar tuzilmasi, inventarizatsiya, moliyaviy tahlil, axborot ishonchliligi

**Kirish**

Tijorat banklarida tovar moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi va nazorati buxgalteriya hisobotining ajralmas qismi bo'lib, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va resurslardan oqilonqa foydalanishda kata ahamiyatga ega. Banklar faoliyatini samarali olib borishda, TMZning aniq va to'g'ri hisobga olinishi muhimdir, chunki bu bankning aktivlari va moliyaviy imkoniyatlarini real baholash imkonini beradi. Noto'g'ri hisob kitoblar va resurslarning noto'g'ri boshqarilishiga olib kelishi va natijada bankning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) banklar faoliyatining uzlusizligini ta'minlashda va ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim resurs hisoblanadi. TMZ korxonaning ishlab chiqarish jarayonlari, sotish va xizmat ko'rsatish faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning moliyaviy holatini belgilaydi. Shu sababli, TMZlarni aniq hisobga olish va samarali audit jarayonlarini tashkil etish, ularning sifatlari boshqaruvini ta'minlash o'ta muhimdir. TMZ hisobida xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar, baholash usullari va zamonaviy audit texnologiyalari orqali ushbu jarayonlarni rivojlantirish korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi.

TMZ hisobi va auditining takomillashtirilishi, bir tomondan, baholash usullarining aniq va amaliy bo'lishini talab etsa, ikkinchi tomondan, korxonaning ichki nazorat tizimini kuchaytirishni va zamonaviy axborot texnologiyalarini

qo'llashni o'z ichiga oladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq TMZlarni to'g'ri hisobga olish, shuningdek, korxonalarda riskga asoslangan audit jarayonini amalga oshirish orqali moddiy zaxiralarning to'g'ri boshqaruviga erishish mumkin.

### **Mavzuning dolzarbliги**

Tijorat banklaridagi TMZ hisobi va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri bo'yicha statistic ma'lumotlar tahlil qilindi. Statistik tahlil banklar faoliyatini aniq baholash va TMZ hisobini yaxshilash orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llarini aniqlashda muhim rol o'ynadi. Ushbu tahlil TMZ boshqaruvining moliyaviy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qilishini aniqlash imkonini berdi.

TMZ hisobi va auditida xalqaro standartlar, zamonaviy texnologiyalar va riskka asoslangan yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatib, ushbu sohani takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Maqolada tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi va auditi jarayonining hozirgi holati va uning samaradorligini oshirish imkoniyatlari o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi:

1. TMZ hisobida xalqaro standartlarning qo'llanishi:

- Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) TMZ hisobi jarayonida bir xillikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari TMZ baholash usullari, jumladan, FIFO (birinchi kirgan – birinchi chiqadi), LIFO (oxirgi kirgan – birinchi chiqadi), va o'rtacha baholash usullarining korxona moliyaviy ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu usullarni qo'llash TMZ hisobini shaffoflashtirishga yordam beradi.

2. TMZ auditi jarayonidagi xatarlar:

- Tadqiqotda TMZ auditida uchraydigan asosiy xavf va xatolar, jumladan, zaxiralarni noto'g'ri baholash, ularning eskirishiga e'tibor bermaslik va noto'g'ri hisobot tuzish hollarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Mazkur xavf va xatolar korxonalarda ichki nazorat tizimi yetarli darajada kuchli emasligini ko'rsatadi.

3. Zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati:

- Tahlillar TMZ hisobi va auditida axborot texnologiyalaridan, ayniqsa ERP tizimlaridan foydalanish jarayonlarni sezilarli darajada soddalashtirishini ko'rsatdi. SAP va boshqa avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotlardan foydalanish natijasida TMZ haqida tezkor ma'lumot olish, audit jarayonida hujjatlarni tekshirish va hisobotlarni avtomatik shakllantirish mumkin bo'ladi.

4. Riskga asoslangan audit yondashuvi:

- Tadqiqot TMZ auditi jarayonida riskka asoslangan yondashuvlardan foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Bu yondashuv TMZ audit uchun resurslarni yanada samarali taqsimlashga, ya'ni yuqori xavfli zaxiralar guruhiba ko'proq e'tibor qaratishga imkon beradi.

5. Ichki nazorat tizimini kuchaytirish:

- Tadqiqotlar TMZ hisobi va auditini takomillashtirish uchun ichki nazorat tizimini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa zaxiralar bo‘yicha ichki hujjatlarni, jarayonlarni va nazorat mexanizmlarini yanada tartibga solishni talab qiladi. Shuningdek, ichki audit xodimlarining malakasini oshirish orqali TMZ hisobi va auditining sifati yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin.

### **Xulosa.**

Tijorat banklarida tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi va nazoratini takomillashtirish banklarning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishini ta’minlash va moliyaviy barqarorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston banklari misolida olib borilgan tahlillar TMZ boshqaruvida bir qator muammolar mavjudligini, xususan, yo‘qotishlarning yuqoriligi, ichki nazorat tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganli va avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy etilmaganligini ko‘rsatdi. Zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish TMZ harakatini samarali nazorat qilish va yo‘qotishlarni kamaytirish uchun muhimdir. Bu resurslardan real vaqt rejimida foydalanish va samarali boshqarish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Basel Committee on Banking Supervision. "Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems." Bank for International Settlements, 2010.
2. Miller, Merton H., and Franco Modigliani. "The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment." American Economic Review, vol. 48, no. 3, 1958, pp. 261–297
3. Jensen, Michael C., and William H. Meckling. "Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure." Journal of Financial Economics, vol. 3, no. 4, 1976, pp. 305–360.
4. Hull, John C. Risk Management and Financial Institutions. 5th ed., John Wiley & Sons, 2018.
5. Mulford, Charles W., and Eugene E. Comiskey. The Financial Numbers Game: Detecting Creative Accounting Practices. John Wiley & Sons, 2002.
6. Brealey, Richard A., Stewart C. Myers, and Franklin Allen. Principles of Corporate Finance. 12th ed., McGraw-Hill Education, 2019.
7. Dobravsky, U. V. "Analysis of the Internal Audit in Commercial Banks." Russian Journal of Economics and Finance, 2019